

## BOLANING IJTIMOIY VA SHAXS SIFATIDA SHAKLLANISHIDA DIALOGIK VA MONOLOGIK NUTQNING AHAMIYATI.

Ishnayeva Xurshida Erkin qizi

Denov Tadbirkorlik Pedagogika Instituti Pedagogika Fakulteti Maktabgacha ta'lim Yonalishi 1Mt  
23 guruh talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turli yosh guruqlar tarbiyasida bolalarni dialogik nutqqa o'rgatish muammolari, dialogik nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg'ulotlarning ahamiyati, ilk yoshdagi ijtimoiy rivojlanish vaziyati va uning genetik vazifasi, bolalarga dialogik nutqni o'rgatish usullarini shakllantirish masalasining ilmiy nazariy ahamiyati, uni o'rganilganlik darajasi va xozirgi vaqtidagi ahamiyati yoritilgan.

**Kalit sozlar:** dialog, imitasiya metodi, talaffuz grammatik ko'nikma, dialogik nutq, jonlanish kompleksi, emotsional, ijobiy munosabat.

Dialogik nutq ikki va undan ortiq kishilar o'rtasida amalga oshiriladi. Nutqning bu ko'rinishi o'ziga xos xususiyatlarga ega, bu nutq keng jumلالарни талаб etmaydi. Shuning uchun dialogik nutq tarkibida to'liqsiz gaplar juda ko'p bo'ladi. Bunday nutq tarkibida so'roq va undov gaplar ham uchraydi. Dialog - suhbat bolaning kattalar va o'z tengdoshlari bilan muloqotining asosiy shakli hisoblanadi. Bolalar bog'chasida o'qitish ikki shaklda amalga oshiriladi: 1. nutqiy muloqot 2. maxsus mashg'ulotlarda

Dialog ko'proq erkin nutqiy muloqotda paydo bo'ladi va u bolalar lug'atini boyitishning talaffuzga oid grammatik ko'nikmalarini tabiiy ravishda rivojlantirish, ravon nutq ko'nikmalariga ega bo'lish bazasi hisoblanadi.

Dialog maxsus mashg'ulotlarda o'qitiladi (oyiga 1-2 ta mashg'ulot); Bolalar bog'chasida bo'lib turgan vaqt mobaynida bola erkin muloqotda pedagog va boshqa bolalar bilan muloqotga kirishadi. Uyda esa kattalar bola bilan turli mavzularda dialogga kirishishlari lozim.

Dialogik nutqni (yoki og'zaki nutqni) o'rgatish odatda suhbat shaklida, ya'ni kattalar bilan bola o'rtasida hamda bolalarning o'zlari o'rtasida fikr almashish shaklida ro'y beradi. Dialogik ravon nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg'ulotlar suhbat metodi (suhbat) va imitasiya metodi asosida o'tkaziladi.

Mazkur metodlar ko'pincha quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

Tayyorgarlik suhbati (so'zlashish) usullari; Teatrlashtirish usullari (imitasiya, qayta aytib berish).





Tayyorlangan suhbatning quyidagi vazifalari mavjud: To'g'ridan-to'g'ri - bolalarni suhbatlashishga, ya'ni suhbatdoshi so'zlarini bo'lmasdan tinglash, luqma tashlash uchun qulay paytni kutgani holda o'zini tutib turish, suhbatdoshi uchun tushunarli qilib so'zlash; Yo'ldosh - talaffuz va grammatik ko'nikmalarni mashq qilish, ma'lum so'zlar ma'nosini aniqlashtirish Suhbat jarayonida tarbiyachi savollar, topishmoqlar, badiiy so'z kabi turli usullardan foydalanadi. Bu usullarning barchasi suhbat paytida bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yo'naltirish, nutqiy muloqotni ta'minlash, bolalar fikrlarini, ularning diqqat-e'tiborlarini, xotiralarini, emotsiyalarini faollashtirishga yordam beradi. Bolalar muassasalarida, oilada bolaga g'amxo'rlik ko'rsatayotgan kattalarga nisbatan emotsiyonal bog'liqlik va ishonch hissini tarbiyalash. Unga nisbatan ijobjiy diqqat-e'tiborga bo'lgan ehtiyojni qondirish.

Kichkintoyning uni o'rab turgan atrof-olamga va uning o'ziga nisbatan qiziqishni rivojlantirishga ko'maklashish. Bolalarda monologik nutqning shakllanishi ularda mantiqiy tafakkurning rivojlanishi bilan bog'liqidir. Bundan tashqari, bola nutqi monologik nutqqa aylanishi uchun u tilning lug'atini va grammatik tomonini erkin egallagan bo'lishi kerak. Bolalarning nutqini o'stirish, ular bilan muloqotda bo'lish bola fikrlash tarzini rivojlantiradi. Bunda esa bolalarni monologik nutqqa o'rgatish muhim ahamiyatga egadir. Ma'lumki, hikoya qila olish qobiliyati kishilarning muloqotda bo'lish jarayonida katta rol o'ynaydi.

Bola uchun esa bu qobiliyat bilish, o'z bilimlarini, tasavvurlarini tekshirish vositasi hisoblanadi. Katta va maktabga tayyorlov guruhlarida esa birinchi yarim yillikda badiiy asarlarni qayta hikoya qilish malakasini o'stirish, adabiy asarlarni mazmunli, mantiqiy izchillikda, aniq va tasviriy, ifodali hikoya qilishga o'rgatishdan iborat. Tarbiyachi qayta hikoya qilishni o'rgatayotganda bolalar diqqatini, ayniqsa, ertakning boshlanmasiga, takrorlanib kelayotgan parchalarga, xulosa qismiga: hikoyalardagi qahramonlarning o'zaro nutqi kabilarga qaratishi lozim.

Bolalar asar voqealarini so'zlayotganda ovoz ohangining xilma-xil turini (so'roq, his-hayajon, hayratlanish, iltimos) qo'llay bilishlariga erishishlari zarur. Bolalarga o'yinchoqlar va buyumlar haqida hikoya tuzishni o'rgatayotganda o'yinchoqlarni tanlab berishga, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatuvchi belgilarni (rangi, shakli, qanday o'ynalishi va boshqalar) aniq so'zlar orqali ifodalashga o'rgatish lozim.

Bolani kreativ fikrlashga o'rgatishda ijodiy hikoya qilish ko'nikmalarini shakllantirib borish zarur. Bolalarni tarbiyachi tomonidan belgilangan hikoya yoki ertakni nihoyasiga yetkazishga, qisqa, lo'nda jumlalar tuzishiga, tasviriy vositalardan foydalanishga o'rgatish nutq o'stirish omillari tarzida belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, bolalarda monologik nutqni o'stirish mantiqiy tafakkurning rivojlanishi bilan bog'liqidir.





Monologik nutqni rivojlantirish orqali bolalarda mantiqiy fikrlashni va muloqotga kirisha olish qobiliyatlarini shakllantirish ertangi kunimiz istiqbolidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. F.R.Qodirova Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi ruhiy omillari.  
T.: "ISTIQLOL", 2006 y.
- 2 D.R. Babayeva. Nutq o'stirish metodikasi. T.: Fan va texnalogiyalar 2009 y.
- 3.Boboyev.T. "Adabiyotshunoslik asoslari":T.:O'zbekiston"2002-yil.173-175-betlar.
4. Rahimov.Z. "Muallif nutqi va uning ko'rinishlari" Til va adabiyot ta'limi.2000.3-son.58-62-betlar

